



TA'LIM MUASSASALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISH

Radjabova Gavxar Umarovna

*QDU Pedagogika kafedrasi dotsenti
r.gavxar69@gmail.com*

O'ktamov Muhammadodil Yo'ldashali o'g'li

QDU Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyatning rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruvni samarali tashkil etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki kadrlar tayyorlash tizimini ham zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi globallashuv davrida raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim muassasalarida boshqaruvni zamonaviy va kreativ yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirish zarurati mavjud. Bu mavzu dolzarb bo'lib, ta'lim tizimining xalqaro talablarga mosligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, yangi pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lishi va xalqaro standartlarga moslashish zarurati boshqaruv tizimini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish milliy strategiyasi"ning qabul qilinishi ushbu jarayonni tezlashtirishni talab qilmoqda. Bu hujjatlar ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun muhim asosdir.

Innovatsion yondashuvlar orqali boshqaruvni takomillashtirish ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini oshirish, o'quvchilar va talabalarni zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan, ijodiy fikrlovchi, axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan kadrlar sifatida tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa davlatning global bozor va mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida boshqaruvning an'anaviy usullari ko'pincha samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Innovatsion boshqaruv yondashuvlari esa muassasalarda qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy va inson resurslarini oqilona boshqarish, sifat monitoringini kuchaytirish va raqamlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv o'quv jarayonlarining individualizatsiyasini ta'minlash, xodimlarning salohiyatini rivojlantirish va ularning mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida pandemiya davri ta'lim sohasida yuzaga kelgan muammolar innovatsion boshqaruvning qanchalik zarurligini yaqqol ko'rsatdi. Masofaviy ta'limni samarali tashkil qilish, texnologiyalarni tezkor joriy etish va ularning muammolarini hal qilish kabi vazifalar ta'lim boshqaruv tizimlarida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni dolzarb qilib qo'ydi.

Shuningdek, ta'lim tizimining xalqaro reytinglarda o'rin egallashi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish kabi vazifalar faqatgina boshqaruv tizimini samarali tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion boshqaruv yondashuvlarini amaliyotga joriy qilish orqali ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, sifat menejmentini yaxshilash va ta'lim oluvchilarga qulay imkoniyatlar yaratish imkoni kengayadi.

Shu bois, ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruvni samarali tashkil etish bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega masaladir.

Innovatsiya - maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka - muassasa, uyushma, jamoa va guruqlarga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy muno-sabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'lik bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

Ba'zida innovatsiya jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda yangiliklar kiritishning rivojlanishi vaqtga bogliq bo'lib, u aniq ifodalangan bosqichlarga ega deb ko'rsatiladi.

Mamlakatimiz olimlari Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahlidinov va I.Majidovlar innovatsiyalarni ta'lim makonidagi xilma-xil tashabbuslar va yangiliklarning to'planishi va shaklini o'zgartirishi tamoyillarida o'z ifodasini topuvchi, ta'limni rivojlantirishning muhim unsuri sifatida quyidagicha ta'riflaydi.

Innovatsiyalar - xilma-xil tashabbuslar va yangiliklar asosida vujudga keladigan ta'lim evolyusiyasi uchun istiqbolli bo'ladi hamda uning rivojlanishiga, shuningdek, ancha keng multimadaniy ta'lim makonining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan aktual ahamiyatli va o'zi tizim hosil qiladigan yangi narsalardir. Ta'limni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha ta'lim muassasalari va tuzilmalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy va pedagogik hamjamiyatda tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish paydo qilish;
- turli yangi narsalarning qabul qilinishi va amal qilishi uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) sharoitlar yaratish;
- izlanuvchan ta'lim tizimlarini hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish;
- eng istiqbolli yangiliklar va mahsuldor loyihalarni real amal qilib turgan ta'lim tizimlariga integratsiyalash hamda to'plangan innovatsiyalarni doimiy amal qiladigan izlanuvchan va eksperimental ta'lim tizimlari rejimiga o'tkazish.

Innovatsion jarayonning uchta mantiqiy shakllari ajratiladi: tashkilot ichidagi oddiy jarayon, tashkilotlararo oddiy jarayon va kengaytirilgan jarayon. Tashkilot ichidagi oddiy innovatsion jarayon bitta tashkilotning o'zida, ya'ni ichki faoliyatida yangilikni joriy etishni ko'zda tutadi, bunda yangilikommallashtirish shakliga ega bo'lmaydi. Tashkilotlararo oddiy innovatsion jarayonda yangiliklar buyumlarni

almashtirish sifatida almashtiriladi. Innovasion jarayonning bu shakli yangilikni yaratganlarning - funksiyasi, iste'molchilarning funksiyasidan farq qilishini ko'rsatadi. Yangiliklarni ishlab chiqqan ixtirochilarning tanho huquqlarini (monopoliya) buzgan holda, mavjud yangiliklarni amaliyotga joriy etuvchi yangi ishlab chiqaruvchilarning vujudga kelishida kengaytirilgan innovasion jarayon yuzaga keladi va o'zaro raqobat tufayli natijaning xususiyatlari takomillashib boradi.

Innovasion jarayon sharoitida eng kamida ikkita sub'yekt:

- yangilik kiritishning tashkilotchilari va iste'molchilar (foydalanuvchilar) faoliyat ko'rsatadi. Agar yangilik texnologik jarayon bo'lsa, uning tashkilotchilari (ishlab chiqaruvchi) va iste'molchilari bitta sub'yekt sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim muassasalari amaliyotiga innovasion modellarni samarali tatbiq etishning boshlang'ich shartlari sifatida:

- umumiy maqsadlarning mavjudligi;
- boshqaruv strukturasining qulay va demokratik xususiyati;
- axborotlar almashinish tizimi orqali tizimosti tizimlarning gorizontal muvofiqlash- tirilishi;
- rahbarlarning yuqori darajada professional kompetentligi (o'z sohasining mohir ustasi bo'lishi);
- jamoada psixologik muhitning ijobiyligi;
- innovasion faoliyatda o'qituvchilarning samarali ishtirokini ta'minlovchi chora- tadbirlarni keltirish mumkin.

Ta'lim muassasalarida innovasion jarayonlarni boshqarishning turli modellarini tatbiq etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- jarayonlar samaradorligini (boshqaruv sifatleri, innovasion faoliyatga qiziqish va tayyorlanish) ta'minlovchi, boshqaruv sub'yekti xususiyatlarini ishlab chiqish;
- tatbiq etish (tajriba-sinov ishlarini, pedagogik tahlil, o'zaro kuzatish, ustoz-shogird tizimi, seminarlar, maslahatlar) shakllari, vosita va metodlarini ishlab chiqish.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, ta'limda innovatsion menejment – bu ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy yondashuvdir. U nafaqat ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish, balki ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakat ta'lim tizimida innovatsion menejmentni samarali tatbiq etish uchun strategik rejalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va kadrlarni malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari yanada chuqurroq o'rganilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Rahmatov Sh.A., Alimova R.X. Oliy ta'lim muassasalari innovatsion tadbirkorlik bo'linmalari amalga oshiruvchi vazifalarining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish // Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke, 2022

2. Ильенкова, С.Д. Инновационный менеджмент: учебник для вузов / С.Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг, С.Ю. Ягудин [и др.]; под ред. С.Д. Ильенковой. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 335 с.

3. Основы инновационного менеджмента: теория и практика: учеб. для студентов вузов; под ред. А.К. Казанцева, Л. Э. Миндели. – М.: Экономика, 2004. – 518 с.

4. Харари Ю.Н. Sapiens: Краткая история человечества / Ю. Н. Харари. – Москва: Синдбаб, 2016. – 570 с.
5. Camblidge Learners' Dictionary English-Russian. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 1065 p.
6. Харари Ю.Н. Sapiens: Краткая история человечества / Ю. Н. Харари. – Москва: Синдбаб, 2016. – 570 с.
7. Современные инновации в образовании. Примеры // Business Режим доступа: <https://businessman.ru/new-sovremennye-innovacii-v-obrazovanii-primery.html> . Дата доступа: 31.12.2017
8. Radjabova, Gavxar Umarovna. "OLIY TA'LIM MUASSASALARINING TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH." Oriental Art and Culture 4.3 (2023): 725-731.
9. Umarovna, Radjabova Gavxar. "ESSENCE AND FEATURES OF THE MARKET FOR EDUCATIONAL SERVICES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 408-413.
10. Umarovna, Radjabova Gavxar. "HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TARAQQIYOTIDA TASHKILOTNING INNOVATSIYON FAOLIYATINING AHAMIYATI." Oriental Art and Culture 7 (2021): 185-189.
11. Umarovna, Radjabova Gavhar. "FEATURES OF THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES AND THE PROBLEM OF INTERACTION OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS WITH EMPLOYERS." E Conference Zone. 2022.
12. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF THE UNIVERSITY MANAGEMENT SYSTEM." International Journal of Early Childhood Special Education 14.8 (2022).
13. Umarovna, Radjabova Gavkhar. "INCREASING THE COMPETITIVENESS OF UNIVERSITIES IN THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES." Open Access Repository 9.11 (2022): 269-273.
14. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "IMPROVING THE PERFORMANCE MANAGEMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." Open Access Repository 8.11 (2022): 81-86.
15. Umarovna, Radjabova Gavkhar. "LABOR MARKET AND EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.07 (2022): 21-28.
16. Radjabova, Gavkhar Umarovna. "The oretical, practical and demographic aspects of labor market development in Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 1070-1075.